



UDK: 159.9:37.015.3

**Rustam DUSHANOV,**

*Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti boshlig'i v.b., DSc, dotsent*

*E-mail: dusanovrustam20@gmail.com*

*Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti professori F.Haydarov taqrizi asosida*

### BO'LAJAK KADRLARNI KASGA TAYYORLASHDA PSIXOLOGIK BILIMLARNING AHAMIYATI

Annotatsiya

Mazkur maqolada bo'lajak kadrlarni kasbga tayyorlashda psixologik bilimlarning ahamiyati va uni takomillashtirish yo'llari borasidagi fikr-mulohazalar bildirilgan.

**Kalit so'zlar:** Psixologik layoqatlilik, kasbiy mahorat, ong va faoliyat birligi, bilish hislatlari, kommunikativ qobiliyat, hissiy-irodaviy barqarorlik, psixotexnik o'yinlar, relaksatsiya, o'zini-o'zi boshqarish, vizuallashtirish.

### ЗНАЧЕНИЕ ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ ЗНАНИЙ В ПОДГОТОВКЕ БУДУЩИХ КАДРОВ

Аннотация

В данной статье были изложены мнения по поводу место и значимости психологических знаний в профессиональной деятельности будущих кадров, а также меры по их усовершенствованию.

**Ключевые слова:** Психологическая компетентность, профессионализм, единство деятельности и сознания, свойства познания, коммуникативные способности, эмоционально – волевая уравновешенность, психотехнические игры, релаксация, визуализация, самоуправления.

### THE IMPORTANCE OF PSYCHOLOGICAL KNOWLEDGE IN THE TRAINING OF FUTURE PERSONNEL

Annotation

The article deals with the role of psychological knowledge in professional activity of the organs of internal affairs and ways of improvement are discussed.

**Key words:** Psychological competence, professional skill, unity of awareness and activity, knowledge, communicative ability, psychotechnical games, relaxation, self-rule, visualization.

**Adabiyotlar tahlili.** Inson o'z hayotidagi eng jiddiy qarorlarni, masalan, kasb tanlash, oila qurish va shu kabilarni aynan yoshlik davrida, ya'ni o'zining hayot tajribasi eng kam bo'lgan yoshda qabul qiladi, agar u o'zi qabul qilgan qarorini keyinchalik muvaffaqiyatsiz deb baholaydigan bo'lsa, u holda ishonchsizlik uning xulq-atvoriga nihoyatda yomon ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Shu nuqtayi nazardan, bugungi kunda yoshlarning jamiyatda, xususan o'zlari istiqomat qiladigan hudud, mehnat qiladigan, ta'lim oladigan, kasb o'rganadigan, sport va boshqa turdagi foydali mashg'ulotlar bilan shug'ullanadigan joylarda tinchlik va osoyishtalikni, jamoat tartibini saqlash, turli xil ko'rinishdagi huquqbuzarliklarning oldini olishda faol ishtirokini ta'minlash eng dolzarb muammolardan biridir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Meni eng katta xavf nimada, degan savol qiynaydi. Eng katta xavf – kadrlar saviyasi, bilimi, ilmi va fidoyiligida. Ming afsuski, eng og'ir masala shu» [1] degan fikrlarida katta falsafiy ma'no bor.

Mavzuning dolzarbligi bo'lajak kadrlarni kasbga tayyorlashda psixologik bilimlarning ahamiyati yetarli darajada o'rganilmaganligi bilan belgilandi

Psixologiya sohasida bo'lajak kadrlarni kasbga tayyorlash masalasini tadqiq qilishda xorijiy olimlardan Ye.A. Klimov, O.G Kovalev, A.M. Stolyarenko va boshqa psixolog olimlar tomonidan o'rganilgan hamda mazkur masalaga ong va faoliyat birligi tamoyili asosida fundamental kategoriya sifatida yondashilgan [5,6,8].

Mazkur muammo, O'zbekistonlik olimlardan G'.B. Shoumarov, E.G'.G'oziyev, V.M.Karimova, R.M.Maxmudov, Ye.Yu.Agzamova va boshqalarning ilmiy tadqiqotlarida o'rganilgan bo'lib, kasbiy faoliyatning boshqaruvida bevosita

ishtirok etadigan alohida shaxs tuzilmalari hamda ularning ontogenezi, tuzilishi, vazifalari, imkoniyatlari, shakllanish qonuniyatlari, huquqiy madaniyati va boshqa masalalar tahlil qilingan.

Bo'lajak kadrlarni kasbga tayyorlashning huquqiy-psixologik jihatlari chet el olimlari tomonidan imkon qadar o'rganilgan. Jumladan, A.M. Stolyarenko bo'lajak yosh xodimlarni psixologik tayyorlash masalasi bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borgan [8]. Psixolog O.V.Xludova ekstremal vaziyatlarda yosh xodimlarning kasbiy sifatlarini rivojlantirish masalasini ilmiy asosda o'rgangan [11].

Tadqiqotchi E.A Vasilenko bo'lg'usi yosh xodimlarda ekstremal vaziyatlarga nisbatan psixologik barqarorlikni shakllantirishga oid izlanishlarni amalga oshirgan [2].

Shu ma'noda, kasbiy faoliyat bo'lajak yosh xodimga ko'plab turli xil talablar qo'yadi, ular orasida eng muhimlaridan biri bu kasbiy xislatlarning rivojlanganlik darajasidir. Bunga:

shaxsiy - kasbiy xislatlarning kasbiy yo'nalganligi;

psixologik barqarorlik;

rivojlangan irodaviy xislatlar: murakkab vaziyatlarda o'zini tuta bilish, jasurlik, mardlik, oqilona tavakkalga moyillik;

yaxshi rivojlangan kommunikativ xislatlar;

turli toifadagi fuqarolar bilan tezda aloqaga kirisha olish, ishonchli munosabatlar o'rnatish olish va uni saqlay bilish;

profilaktik ishlarni amalga oshirishda fuqarolarga psixologik ta'sir ko'rsata olish qobiliyati;

rivojlangan irodaviy xislatlar: murakkab vaziyatlarda o'zini tuta bilish, jasurlik, mardlik, oqilona tavakkalga moyillik; yaxshi rivojlangan kommunikativ xislatlar; turli toifadagi fuqarolar bilan tezda aloqaga kirisha olish, ishonchli munosabatlar o'rnatish olish va uni saqlay bilish; profilaktik ishlarni amalga oshirishda fuqarolarga psixologik ta'sir ko'rsata olish qobiliyati;

rivojlangan irodaviy xislatlar: murakkab vaziyatlarda o'zini tuta bilish, jasurlik, mardlik, oqilona tavakkalga moyillik; yaxshi rivojlangan kommunikativ xislatlar; turli toifadagi fuqarolar bilan tezda aloqaga kirisha olish, ishonchli munosabatlar o'rnatish olish va uni saqlay bilish; profilaktik ishlarni amalga oshirishda fuqarolarga psixologik ta'sir ko'rsata olish qobiliyati;

ziyraklik, murakkab vaziyatdan chiqib keta olish kabi xislatlar kiradi [3]

Mazkur hislatlarning bo'lajak yosh xodim shaxsida bo'lmasligi yoki yetarli rivojlanmaganligi o'z funksional vazifalarini me'yorida bajarishga salbiy ta'sir ko'rsatadi va bu ularning kasbiy faoliyatida xatoliklarga yo'l qo'yishiga, o'z kasbiga moslasha olmasligiga va kasbiy buzilishiga olib keladi. Chunki, shaxsiy tarkib sifati uning kasbiy mahorati darajasi, axloqiy-ruhiy darajasi, jismoniy tayyorgarligi va intizomi bilan belgilanadi [4]

Shu ma'noda, har qanday faoliyatning samaradorligi yosh xodimning psixologik tayyorgarligi bilan beliganadi. Har qanday faoliyat insonga muayyan kasbiy talablar qo'yadi hamda uning ruhiy olami va turmush tarzida o'ziga xos iz qoldiradi.

Shu nuqtayi nazardan yosh kadrlarning xizmat faoliyatida o'zining ruhiy-irodaviy holatini boshqarishi, zarur bo'lgan eng asosiy psixologik omillardan biri sanaladi

Chunki, mazkur faoliyatning o'ziga xosligi, turli nostandart vaziyatlar, ruhiy va jismoniy zo'riqishlar yosh xodimni stress holatlari sari yetaklaydi va bu faoliyat samaradorligini pasaytiradi hamda xizmatda jiddiy xato va kamchiliklarga yo'l qo'yilishiga zamin yaratadi.

Bunday vaziyatlarning takrorlanishi ko'pincha o'ziga bo'lgan ishonchning yo'qolishiga, asabiy depressiya holatlarga olib keladi. Shu nuqta nazardan, bo'lajak yosh kadrlarni psixologik tayyorlashdan ko'zlangan maqsad, ularda xizmat faoliyatining har qanday murakkab vaziyatlarida kasbiy jihatdan to'g'ri, aniq qaror qabul qilish, oqilona tavakkalchilik va yuqori ishchanlik bilan harakatlanish ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat.

Bunda, yosh xodim shaxsiga hissiy-irodaviy barqarorlik, chidamlilik, muloqotmandlik, stress holatlarini vujudga keltiruvchi omillar ta'siriga qarshi psixologik immunitetni shakllantirish kabi talablar qo'yiladi.

O'tkazilgan tadqiqotlar (Yu.Ye.Skalin, A.M.Stolyarenko, T.A.Xrustaleva, N.A. Sog'inov, R.X.Dushanov va boshq.)da mazkur xislatlarni amaliy mashg'ulotlar va maxsus psixologik treninglar yordamida maqsadli rivojlantirish natijani 2-3 marta yaxshilashga imkon berishini ko'rsatadi. Shu ma'noda, bo'lajak yosh xodimlarda quyidagi kasbiy-shaxsiy xislatlarni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi [7,8,10,9,4]. Bular: turli toifadagi fuqarolar bilan ishonchli psixologik aloqa o'rnatish uquvi hamda ko'nikmalarini rivojlantirish; murakkab xizmat faoliyatining ekstremal vaziyatlarida turli rollar (qiyofa)ga kira olish ko'nikmalarini shakllantirish; nizoli vaziyatlarida fuqarolarga psixologik-pedagogik ta'sir etish usullarini qo'llash mahoratini shakllantirish; nostandart vaziyatlarida o'zini tuta olish va psixologik barqarorlikni ta'minlash ko'nikmalari; hissiy-irodaviy xislatlarini rivojlantirish usullarini o'rgatish; ruhiy-emotsional barqarorlik va irodaviy harakat ko'nikmalarini shakllantirish; xizmatdagi ruhiy zo'riqishlarni oldini olish qobiliyatlarini rivojlantirish maqsadga muvofiqdir [4].

Mazkur ko'nikmalarni rivojlantirishda: bilish xislatlari, kommunikativlik, rolgga kirish, psixologik boshqaruv trening (mashq)lari va psixotexnik o'yinlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Metodologik asos: Ushbu psixologik usullar yosh xodim shaxsi uchun zarur bo'lgan xislatlar, ko'nikmalar va kasbiy mahoratni samarali shakllantirish va rivojlantirishga imkon yaratadi. Kasbiy psixologik treninglarga quyidagilar qiradi:

Bilish xislatlari trening(mashq)iga kasbiy kuzatuvchanlik, tezkor xotira, mantiqiy tafakkurni rivojlantirish va idrok qilish tajribasini to'plash bo'yicha mashqlar kiritiladi.

Kommunikativ trening - turli toifadagi fuqarolar bilan ishonchli munosabat o'rnatish, ularga psixologik ta'sir ko'rsatish ko'nikmalarini egallashni o'z ichiga oladi.

Turli rollarga kirish treningi - vaziyatdan kelib chiqib, verbal va nonverbal vositalarni qo'llashda qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan maxsus mashqlarni bajarish orqali rivojlantiriladi.

Psixologik boshqaruv mashqlari - shaxsning hissiy-irodaviy holatlarini boshqarishga, ortiqcha asabiylik, zo'riqishni bartaraf etishga, yosh xodimning faoliyatida muayyan ijobiy kayfiyat yaratishga imkon beruvchi o'zini o'zi boshqarishning eng oddiy usullaridan foydalanish ko'nikmalarini egallashga qaratilgan. Ushbu guruhga autogen mashqlar, irodaviy o'zini o'zi boshqarish usullarini egallash ham kiritilgan.

Psixotexnik o'yinlar - bo'lajak yosh xodimlarni psixologik tayyorlashning samarali usuli bo'lib, o'yin tarzidagi xatti-harakatlarni bajarish orqali muayyan xislatlarni shakllantirish uchun qo'llaniladi.

Kasbiy psixologik treningni amalga oshirishda uni tashkil etishning muayyan prinsiplariga suyanish zarur bo'lib, bu prinsiplar quyidagilar:

- treningning ilmiy asoslanganligi va maqsadga muvofiqligi;
- treningning kasbiy yo'nalganligi;
- trening o'tkazishda muntazamlilik va ketma-ketlik;
- ta'lim oluvchilarning ongilligi va faolligi;
- tayyorgarlik ko'rishning barcha uchun osonligidir.

Shu bois bo'lajak yosh xodimdagi hissiy-irodaviy barqarorlikka uning kasbiy faoliyatga psixologik jihatdan tayyorligini ko'rsatuvchi omillardan biri sifatida qarash mumkin. Bu, o'z navbatida, har bir yosh xodimning kasbiy malaka va ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Hissiy-irodaviy barqarorlik deganda, murakkab vaziyatlarda muvaffaqiyatli ishlash uchun qulay bo'lgan ruhiy holatni saqlash qobiliyati tushuniladi. Hissiy-irodaviy barqarorlik quyidagilarda namoyon bo'ladi:

ekstremal vaziyatlarda yosh xodimda harakatlarining samaradorligini pasaytiruvchi va noaniqliklar, adashishlar tug'diruvchi psixologik reaksiyalarning yo'qligi; psixologik jihatdan murakkab bo'lgan sharoitlarda vazifani bexato bajarish mashqini olganlik; kasbiy ziyraklikni saqlash, oqilona tavakkalchilik, xavf-xatar, kutilmagan vaziyatlarga nisbatan ehtiyotkorlik va diqqatni namoyish etish; ishlarni qat'iy qonun asosida yuritishga ta'sir etuvchi shaxslarning ruhiy ta'siriga berilmaslik; psixologik jihatdan murakkab, nizoli, ig'vogarona vaziyatlarda o'zini yo'qotmaslik.

Yosh xodimning hissiy-irodaviy o'zini o'zi boshqarish jarayoni quyidagi uchta asosiy prinsipga tayanadi:

- relaksatsiya;
- vizuallashtirish;
- o'zini o'zi ishortirish.

Relaksatsiya prinsipining mohiyatini tana va ruhning birgalikda ishlashga tayyorlanishi tashkil etadi. Aynan relaksatsiya paytida o'z ichki ovozingizni eshitish hamda o'z organizmingiz va tafakkur faoliyatingizning aloqasini his etishingiz mumkin. Relaksatsiya yoki bo'shashish tana va ruhni keraksiz zo'riqishlardan bo'shashtirib, insonga foydali psixologik va fiziologik ta'sir ko'rsatadi. Bu o'zaro ta'sir ko'rsatuvchi jarayon: unda miya xotirjamlashgani sayin tana bo'shashadi, tana bo'shashgani sayin miya xotirjam bo'la boradi.

Ikkinchi prinsip - vizuallashtirish. Intiutiv tafakkur onga kirib borishining turli yo'llaridan foydalanadi. Asosiysi manzara hosil qilish yoki ongda obrazlarni gavalantirish yo'lidir. Vizualashtirish yo'nalgan tasavvurni eshitish, ko'rish, hid bilish, ta'm bilish, teri bilan sezish sezgilari hamda ularning kombinatsiyalari yordamida faollashtirishning turli usullarini bildiradi. Aslida inson miyasi obyektiv olam obrazlariga ham,

ongda yuzaga keladigan obrazlarga ham bir xilda javob beradi. Shu bois vizuallashtirish ko'nikmalari insonga o'z ichki imkoniyatlaridan yaxshiroq foydalanish, ruhiy jarayonlarning kechishini faollashtirish imkonini beradi.

O'zini o'zi ishortirish prinsipning mohiyati shundaki, biz o'zini o'zi ishortirish yordamida ichki obrazlarimizni ongimizda aks-sado sifatida bir necha marta takrorlanadigan so'zlar bilan ifodalaymiz. O'zining ichki kuchi va qo'llab-quvvatlanishi bilan to'lgan bu so'zlar his-tuyg'ular darajasida chuqur qabul qilinadi. Bunday ichki aks-sadoni "Men buni qila olaman", "Men kuchliman", "Tayyor bo'l", "Bajar" so'zlarida namoyon bo'ladigan munosabat, niyat va mayl sifatida ifodalash mumkin. O'zini o'zi ishortirish muvaffaqiyatga erishish mumkinligi haqida birinchi shaxs nomidan hozirgi zamonda ifodalangan aniq ta'kididir. Insonning o'ziga qarata aytgan so'zlari o'z maqsadlariga erisha olishiga bo'lgan ishonchini

kuchaytiradi va qaysi yo'nalishda harakat qilish kerakligini ko'rsatadi. Bu so'zlar ongni maqsadga erishish borasida ishlashga va bunda faol ishtirok etishga majbur qiladi. O'zini o'zi ishortirish – obrazlarni so'zda ifodalashga imkon beruvchi faol moyillikdir.

**Xulosa.** Bo'lajak yosh xodimlarning kasbiy faoliyat samaradorligini ta'minlaydigan zarur, professional jihatdan muhim xislatlarini rivojlantirish, faoliyatining ishonchligini oshirish, odamlar bilan mo'hirona ishlashga yordam beruvchi usullarni o'zlashtirish bugungi davr talabidir.

Bo'lajak yosh xodimlarni kasbga psixologik tayyorlash, ularda xizmat faoliyatining samaradorligini oshirishga xizmat qilishi yosh xodim shaxsiga hissiy-irodaviy barqarorlik, chidamlilik, muloqotmandlik, stress holatlarini vujudga keltiruvchi omillar ta'siriga qarshi psixologik immunitetni shakllantirish kabi talablar qo'yiladi.

#### ADABIYOTLAR

1. Shavkat Mirziyoyevning 14-avgust kuni mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha 2019-yilning birinchi yarmida amalga oshirilgan ishlarni muhokama qilish hamda 9 oy va yil yakuni bo'yicha belgilangan prognoz parametrlariga erishishni ta'minlaydigan ustuvor vazifalarga bag'ishlangan kengaytirilgan yig'ilishdagi nutqi. 55 / 15.08.2019 187124. kun.uz / O'zbekiston Prezident matbuot xizmati.
2. Vasilenko E.A. Formirovaniye psixologicheskoy ustoychivosti budushix sotrudnikov OVD k ekstremalnim situatsiyam: Dis. ... kand. psixol. nauk. Stavropol, 2008. – 229 s.
3. Dushanov R.X., Farfiyev Yo.A. Kasbiy psixologiya. Darslik. IIV Akademiyasi. Toshkent. 2023. 380-bet.
4. Dushanov R.X. Tezkor-qidiruv faoliyati psixologiyasi. Darslik. IIV Akademiyasi. Toshkent. 2016. 580-bet.
5. Klimov I.A., Kovalev O.G. Psixologiya operativno-rozisknoy deya-telnosti // Psixologiya. Pedagogika. Etika: Uchebnik dlya vuzov / Pod red. prof. Yu.V. Naumkina. M., 2012. – 275 s.
6. Klimov Ye.A. Psixologiya professionalnogo samoopredeleniya. /I.A. Klimov. – M.:Izd-vo «Akademiya», 2004. – 304 s.
7. Skalin Yu.Ye. Professionalniy psixologicheskiy otbor operativnix sotrudnikov ugolovnego roziska: Dis....kand. psixol.nauk. – Sankt-Peterburg 2009. – 196 s.
8. Stolyarenko A.M. Psixologicheskaya podgotovka sotrudnikov organov vnutrennix del. – M., 1988. – 245 s.
9. Sog'inov N.A. Kadrlarning kasbiy ahamiyatli sifatleri va motivatsion tizimi // Yurist axborotnomasi. Vestnik yurista. – 2019. – № 3. – B.36-39.
10. Xrustaleva T. A. Psixologicheskiye osobennosti formirovaniya lichnosti operativnogo rabotnika ugolovnego roziska. Dis. ... kand. psixol. nauk, M. 2004. -145 s.
11. Xludova O.V. Razvitiye professionalnix kachestv sotrudnikov OVD v ekstremalnix situatsiyax. Dis. ... kand. psixol. nauk, Tambov. 2004. -165 s.